

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti

“O'zbekiston tarixi” kafedrasi

“O'zbekiston tarixi” fani

Mavzu: Turkistonda rus –tuzem maktablari faoliyati.

KURS ISHI

Bajaruvchi: Chorshanbiyev A

Ilmiy rahbar: Esanov A

Samarqand 2016 yil

Mavzu: Turkistonda rus –tuzem maktablari faoliyati.

Reja:

Kirish

1. CHorizm maorif siyosatining asosiy tamoyillari.
2. Rus-tuzem maktablarining faolaiyati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi respublikada demokratik va insonparvar jamiyat qurishga, bo-zor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan jamiyat negizlari-ni yaratishga keng yo'l ochib berdi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqining o'tmish tarixi, ma'naviy qadriyatlari, qadimiy madaniyati tiklana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zbek xalqining istiqlol yillarida qayta uyg'onayotgan milliy ma'-naviyati va ma'rifatiga to'xtalib, jumladan, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tu-shib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi"¹

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, haqli tarzda ta'kidlash joizki, aynan mustaqillik davriga kelib o'zbek xalqi ma'rifatining taraqqiyoti va ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qadimdan o'ziga xos madaniyat rivojlangan, shaharsozlik ma-daniyati taraqqiy etgan, ko'p sonli maktab va madrasalarga ega bo'lgan Turkistonda o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud edi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, O'zbekistonda faoliyat olib borgan milliy maktab va madrasalar soni yildan-yilga qisqarib bordi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan so'ng o'lka hayotining barcha sohalarida mustamlakachilik tartibini o'rnat-di. Jumladan, mustamlakachi ma'muriyat o'lkada mavjud bo'lgan madrasa va mahalliy diniy maktablar faoliyatini cheklab, ular ustidan doimiy nazorat yuritish siyosatini olib bordi. O'lkada faoliyat yuritgan barcha general-gubernatorlar mahal-liy aholi ijtimoiy-ma'naviy turmush tarzini ruslashtirish siyosatiga urg'u berdilar. Ruslashtirish

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 2008.

siyosati ta'lim soha-siga ham taalluqli edi, albatta. Biroq fevral inqilobi o'lka ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida ma'lum o'zgarishlar boshlanishiga turtki berdi. Inqilobdan so'ng madrasa, eski maktablar ham o'zlarining erkin faoliyatini olib bordilar. O'lkadagi madrasa, maktablar soni oshib bordi, biroq oktyabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bol-sheviklar madrasa va maktablar faoliyatini cheklash siyosati-ni yuritdi.¹

Sovet hokimiyati o'rnatilgach, milliy maktab va madrasalar-ning vaqf mulklarini ekspropriatsuya qilish maqsadida doimiy ravishda kurash olib borildi. Jumladan, RSFSR hukumatining "Er to'g'risida"gi dekretiga asosan barcha yerlar, xususan, vaqf yerlari ham davlat mulkiga aylantirildi. RSFSR XKS tomdni-dan chiqarilgan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekretga asosan milliy maorif maskan-larida diniy fanlarning o'qitilishi cheklab qo'yildi. Dekret chiqarilgandan keyin maktab, madrasalar va ulardagi o'quvchi-lar soni ham keskin kamaydi. Vaqf mulklarining ekspropria-siya qilinishi, maktab va madrasalar faoliyatining cheklab qo'yilishi mahalliy aholining jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi.

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 121-bet.

1. CHorizm maorif siyosatining asosiy tamoyillari.

O'lkada bilim yurtlari bosh inspektorining 1902 yil Rossiya Maorif ministriligiga yozgan xatida maktab va madrasalarning o'quv tizimi usullari to'g'risida yanada qanoatlanarli mulohazalar yuritilgan. Xususan xatda shunday fikrlar mavjud: "...musulmonlar xuddi Evropa Rossiyasi, Sibirdagidek o'zlarining maktab va madrasalarida bilim olayotirlar. Maktab va madrasalar xalq turmushida muhim ahamiyat kasb etadi va yosh avlodga muayyan yo'nalishlar beradi... Bizdagi maktab va madrasalar qaysi tartibga ko'ra tashkil topgan? Bizning joylarda bu maktablar aksar mahalliy sharoitlar taqozosiga ko'ra tashqi ko'rinishdagi juz'iy o'zgarishni aytmaganda, Buxorodagidan deyarli o'zgarishsiz joriy etilgan.

Maktablar boshlang'ich ta'lim berishga asoslangan. Ularda eng kichik yoshdagi bolalar arabchada o'qish va yozishni o'rganadilar. Qur'onni, namozni va turkiy tildagi bir necha she'riy asarlarni yod oladilar. Maktablarda necha yoshgacha o'qish kerakligi tayin etilmagan. Ta'lim bosqichlari bir kitobni o'zlashtirib, ikkinchisiga o'tish bilan belgilanadi. Ta'lim olish muddati o'quvchilarning qobiliyatiga, shuningdek, o'qituvchilarning tajribalariga bog'liq bo'lib, 3 -5 yilga boradi".

XIX asr oxirlariga kelib bu maktablarning birontasida tabiiy fanlarning o'qitilmaganligi ham ajablanarli holdir. Husnixonat va yozish san'ati bolalarga puxta o'rgatilganligi ayrim maktablar haqida keltirilgan ma'lumotlarda uchraydi. Lekin ayrim qishloq maktablari o'rtasida o'qitish ishlarida sifat jihatidan farqlar seziladi.

Shu o'rinda Turkistondagi milliy ta'lim tizimidan hozirgi kunda jahon andozasi darajasiga intilayotgan zamonaviy ta'lim tizimimizga an'anaviy maktab va madrasalardagi ilmiy merosni o'rganish usullaridan ba'zilarini, jumladan, o'lkamizdagi qadimiy turkiy madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan arab, fors tillarini o'rganish tajribasidan hozir ham unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki turkiy xalqlar tarixi, boy madaniy, ilmiy, falsafiy merosining ancha qismi shu tillarda bitilganligi hammasizga ma'lum. Kelgusida bu buyuk

ma'naviy boyligimizni o'qib tushunadigan va tilimizga o'giradigan mutaxassislarni ko'plab tayyorlash muhimdir.

Senator K.K. Palen yuqorida nomini zikr etganimiz kitobida madrasalardagi o'qish usuli uch bosqichga bo'ladi.

Birinchi bosqich - "Odna" deb yuritilib, bu bosqichda toliblar 2, 4, 5 yil o'qishgan. Darslar asosan arab, fors tillarida olib borilgan. Bu yillarda arab tili grammatikasi, fors tili o'rganilgan. Arab tilidagi "Zanjoni", "Ixlabi", "Avomil", "Harakat", "Kofiya" (uning sharhi hisoblangan "Sharh - mulla" ham) va fors tilidagi "Avvali ilm" kabi asarlar mutolaa qilingan.

Ikkinchi bosqichda - tolibi ilmlar fiqh masalalari bilan mashg'ul bo'lib, islom qonunshunosligidan saboq olganlar.

Uchinchi bosqichda "Shamsiya" va uning sharhi hisoblangan "Hoshiya" hamda "Mushkilot" ni o'rganganlar.

Shuningdek, "Aqoid" (dogmatika), "Tahzib" (dialektika) "Hikmatul-ayn" va astronomiyaga oid asarlarni o'qiganlar, kosmografiyaga bag'ishlangan umumiy bilimlar olishgan. Mantiq faniga ham e'tibor qaratilib bu soha bo'yicha: "Tavzih", "Hadis", "Qiyos" va "Tavsifi qozi Boyzaviy" lardan ma'ruzalar tinglangan. Fiqh o'rganuvchilar uchun esa ko'proq quyidagi kitoblar dastur vazifasini o'tagan: "Fiqxi Kaydoni", "Muxtasar ul-viqoya", "Hidoyai sharif" va boshqalar.

Toliblar ilmi hisob va tibbiyot bilan ham shug'ullanganlar. Ayniqsa klassik shoirlarning g'azallari va dostonlari qunt bilan o'qitilgan.

O'quv yili oktyabrda boshlanib, aprelda tugagan. O'qish haftaning to'rt kuni: yakshanba, dushanba, seshanba va chorshanba kunlari olib borilgan. Ramazon va Qurbon hayitlarida ikki haftalik ta'tillar berilgan.

Xullas, shu asosda maktab va madrasalarda o'qitish ishlari olib borilgan. Dalillardan ham ko'rinib turibdiki, Turkiston xalqlari ba'zi bir sovet tarixchilari aytganlaridek butkul savodsiz bo'lmagan. O'lkada o'ziga xos usullaridagi ta'lim an'analari izchil davom ettirilgan. Albatta umumjahoniy taraqqiyot talablari nuqtai nazaridan kelib chiquvchi maorif tizimi ham yo'lga qo'yilmaganligini, ilg'or an'analarni to'liq egallamaganligini ham e'tirof etish shart.

O'qitishdagi ibtidoiy usullar, faqat yod olishga qaratilgan tartiblar, talablarni qondira olmaydigan metodlardan foydalanilgan. Shuning uchun Chor istibdodi yillaridagi Turkiston milliy maorifi xususida fikr yuritilganda masalaning har ikkala tomoni ham hisobga olinishi kerak. Boshqa tarafdin esa o'lka maorif tizimining ma'lum ma'nodagi qoloqlik darajasi, uning tarixini o'rganishga monelik qilmaydi. Biz qanchalik istamaylik, tarixni o'zgartirib bo'lmaydi. Undan saboq olish kerak. Masalaning yana bir jihati mavjud. Bu shundan iboratki, Turkiston maorif tizimi xususidagi ma'lumot bergan shaxslarning asosiy qismi mahalliy millatga tegishli bo'lmagan kishilardir. Shu bois ularning qarashlari nechog'li dalillangan bo'lmasin, o'lkadagi ta'lim tizimi xususida mutloq obektiv ma'lumotlar bermaydi. Ular ko'pincha bir tadqiqotchi yoki bir sayyohning kuzatishlari sifatida namoyon bo'ladi. Milliy muarrixlarimizning bu boradagi asarlari esa ilmiy iste'moldan chetlashtirilgan yoxud hozirgacha noma'lum bo'lib kelmoqda. (Ularining ba'zilar haqida bundan oldingi bo'limda fikr yuritdik) Ixtiyorimizda milliy tarixchilar bergan ma'lumotlarning juda kamligi ham masalaning obektiv xulosali echimini berishimizga xalaqit beradi.

Chorizm maorif siyosatining asosiy tamoyillari

Navbatdagi masala mustamlakachi ma'murlarning Turkiston maorif tizimi jabhasida olib borgan siyosatiga aniqlik kiritishdan iborat. Yuqorida ta'kidlanganimiz kabi, Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori K.P. Fon Kaufman mamlakat maorif tizimi bilan har shaxsan o'zi shug'ullandi. U o'lkada maorif ishlarini qay tarzda yo'lga qo'yish maqbulligini bilish maqsadida missionerlar uchun Provaslav cherkov maktablarining tashkilotchisi, Volgabo'yi, Boshqirdiston, va Qozog'iston dashtlaridagi aholini ruslashtirish bo'yicha bir qancha samarali tadbirlarni amalga oshirgan. N.I.Ilminskiyga maslahat va yo'l-yo'riq so'rab murojat etadi. K.P.Fon Kaufman N.I.Ilminskiyga Turkistonga kelib mahalliy shart-sharoitlarni o'rgangandan so'ng, o'qitish ishlarining aniq bir reja yo'nalishini ishlab chiqishga da'vat etadi. Ana shu taklifga binoan N.I.Ilminskiy 1868 yilning bahorida K.P.Fon Kaufmanga bir qator xomaki

reja va fikrlar bitilgan xatni yubordi. N.I.Ilminskiyning takliflarida O'rta Osiyodagi maorif ishlarini keng ko'lamda missionerlik yo'li bilan olib borish kerakligi uqtiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, mahalliy musulmon maktablarini ehtiyotkorlik bilan nasroniy tipidagi maktablarga aylantirish edi. Uni amalga oshirish uchun o'quv ishlariga boshchilik qilishga Qozon diniy akademiyasidan chiqqan, tatar va arab tillari, madaniyati bilimdoni I.S.Yastrebov tavsiya etiladi. Biroq Fon Kaufman I.S.Yastrebovni Turkistonga olib kelishga erisha olmaydi. Chunki I.S.Yastrebov o'sha yillar Rossiya hukumatining ma'sul lavozimlaridan birida, ya'ni Rossiyaning Turkiyadagi konsulxonasida kotib vazifasida xizmat qilar edi. Shu bilan birga Turkistonda o'quv ishlarini tashkil qilish bo'yicha Kaufmanning qarashlari, Ilminskiyning taklifiga muvofiq kelmaydi. Fon Kaufmanning fikricha, mahalliy aholining diniy qarashlariga etkaziladigan ozgina tazyiq ham mustamlakachilarga nisbatan mahalliy xalqning nafrat va dushmanligi uyg'otish mumkin edi.

N.I.Ilminskiy Turkistonda maorif tizimi rejalarini ishlab chiqib uni amaliyotga tadbiq etish mushkulligini his qilada va 1869 yilning avgust oyida general-gubernator Kaufmanga rad javobi bildirilgan o'z xatini yo'llaydi. Oradan o'n besh yil muddat o'tgach, N.I.Ilminskiy ober-prokuror Pobedonossevgga yozgan xatida bu voqeani shunday hikoya qiladi: "1869 yili Turkiston general-gubernatori K.P.Fon Kaufman graf D.A.Tolstoydan men haqimda eshitgach, har xil yo'llar bilan meni Turkiston o'lkasiga bir yilga kelib, maxalliy xalqning ijtimoiy hayoti va o'ziga xosligi bilan yaqindan tanishgach, o'lka xalq ta'limini tashkil etishga doir mutaxassis maslahatini berishimni va qo'llanmalar tuzib berishimni qistay boshladi. Nima bo'ldi deng? Men bu takliflarni qat'iyan rad etdim, chunki qo'rqib ketgan edim. Va general fon Kaufmanga sog'ligim yomonlashgani va kuchim etmasligi haqida o'zimni erga uruvchi ko'z yoshli xat yozishga majbur bo'ldim»¹.

¹ Знаменский Н.Б. Участие Н.И.Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. – Казань, 1900. Ч.4. С. 113-114.

Shundan so'ng Turkiston ma'murlari bu ishni o'z kuchlari bilan hal qilishga kirishadilar. 1870 yilda o'quv ishlarini tashkil etish bo'yicha alohida Komissiya tuzildi. Komissiya xulosasiga ko'ra, o'lkadagi xalq ta'limi Rossiya imperiyasining manfaatlariga bo'ysundirilishi kerak edi. Shu bilan birga mahalliy diniy qarashlariga hech qanday tayziq o'tkazilmasligi ta'kidlanib, mahalliy musulmon maktablari rus hukumatining yordamiga umid qilmasligi nazarda tutildi.

Senator K.K.Palen ushbu Komissiyaning xulosasidagi: «Biz mahalliy maktablarning o'rnini bosadigan maktab namunasini topmadik, chunki rus maktablari bu o'lkada ko'p yillar, balki umrbod mahalliy xalqqa begona bo'lib qolaveradi»,² degan jummalarni o'z asarida keltiradi.

Chorizmning Turkiston o'lkasi maorif tizimi bilan bog'liq siyosati to oxirgi general-gubernatorgacha shu taxlit davom ettirildi. Shu tufayli Turkistonning barcha general-gubernatorlari o'lka musulmonlarining milliy urf-odat va an'alarini o'zgartiradigan, alohida norozilik kayfiyatlarini uyg'otadigan jiddiy islohotlarni o'tkazishga jur'at etmadilar. Ko'p yillar milliy maktab va madrasalarga munosabat faqat ma'muriy nazorat bilan cheklanadi, xolos.

Shu bilan bir qatorda rus maktablarida ham, erli millat bolalarining diniy e'tiqodiga aralashmaslik siyosati yuritildi. Ammo N.I.Ilminskiy singari musulmon maktablarini xristianlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlovchilar ham yo'q emas edi. K.P.Fon Kaufman general-gubernatorligi davrida bu xil siyosat tarafdorlari ma'muriy, iqtisodiy mafkuraviy madaddan mahrum edilar. Shuning uchun ham ular o'z g'oyalarini amalga oshirishda zaruriy tadbirlarni uyushtirish imkoniyatiga ega emas edilar.

1874 yilning 20 noyabrida Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha musulmon o'quv yurtlarini Rossiya Xalq maorifi Ministrligi tasarrufiga o'tkazish haqida qonun chiqarildi. Podshoning huzurida Turkistonni

² Знаменский Н.Б. Участие Н.И.Ильминского в деле инородческого образования в Туркестаном крае. – Казань, 1900. С. 113-114.

egallashda ko'rsatgan xizmatlari uchun alohida vakolatlarga ega bo'lgan general Kaufman Turkiston o'lkasida bu qonunga amal qilmaslik haqida o'zining buyrug'ini chiqaradi. Keyinchalik Fon Kaufman bu buyruqni imperiya manfaati va xavfsizligi hisobga olib chiqarilganligi haqida podshoga izoh beradi.

Shunday qilib, madrasa va maktablarning zamonaviy talablar darajasiga moslashtirish to'g'risidagi islohotlar birinchi general-gubernatorlik davrida o'z echimini topmadi. Asta-sekin bu ishni amalga oshirish uchun ba'zi tub joy xalq vakillari jonbozlik ko'rsata boshladilar.

O'zingdan chiqqan baloga...

Turkistondagi maorif tizimini mustamlakachilar ko'nglidagiday qilib o'zgartirish tarafdorlaridan biri, Toshkentning eng boy savdogarlaridan hisoblangan Saidazimboy edi. U madrasalarni zamon talablari asosida isloh qilish haqida rus ma'murlariga murojaat etadi.

Saidazimboy Muhammadboev general K.P.fon Kaufmanga bu xususda o'zining real talab va takliflarini kiritgan xatini yuboradi. Uning taklifiga binoan, Toshkentdagi Eshonqul Shayxontohur madrasasining o'quv dasturiga rus tili va grammatikasi, Rossiya imperiyasining asosiy va aynan Turkistonga tegishli bo'lgan qonunlari kiritilishi lozim edib shu bilan birga toliblarga zamonaviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hunarlarni o'rgatish kabilar ham ko'zda tutilgan.

Fon Kaufmanning qo'l ostida uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan shaxs N.P.Ostroumov generalning bu murojaatnomaga bo'lgan munosabatini qo'yidagicha izohlagan. Kaufman Saidazimboy haqida " u hammadan foydalanib qolishni xohlaydi deb hisoblaydi" deb gapirgan va hech qachon unga ishonmasligini bildirgan¹.

1882 yilning may oyida Kaufman vafot etadi. Yangi podsho Aleksandr II davrida Turkiston general –gubernatori qilib general Chernyaev

¹Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.Н.Фон Кауфман устроитель Туркестанского края. /Личные воспоминания Н.П. Остроумова (1877-1881 гг.). – Т., 1899. С. 32.

tayinlanadi. Chernyaevning buyrug'iga ko'ra, mahalliy boylar va ulamolarning ruslarga xayrixox qismidan tashkil topgan Komissiya tuziladi. Komissiya tuzilgandan keyin bir yil o'tgach, 1884 yilning boshlarida gubernatorga 4 ta taklif kiritilgan loyihani topshiradilar.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Qozilar sudiga bir qator o'zgartirishlar kiritish;
2. Maktab va madrasalarning o'quv dasturlariga rus tilini kiritish;
3. Vaqf ishlarini tartibga solish;
4. Turkiston musulmonlarining diniy boshqarmasini tuzish;

Ammo falakning gardishi bilan, bu takliflarning deyarli barchasi natijasiz bo'lib chiqdi. Sababi, Chernyaevning o'rniga kelgan yangi general – gubernator Rozenbax bu takliflarni imperiya manfaatlariga zid deb topadi va Komissiya materiallarini arxivga topshirib yuboradi.

Mustamlakachi ma'murlar Turkiston maktab va madrasalariga nisbatan o'ta ayyorlik bilan pinhona siyosat olib bora boshlaydi. Milliy ta'lim tizimi asoslarini chetlab, xalq e'tiboridan qoldirish siyosatini tutadi. Milliy maktablarga, rus maktablarini raqobatga qo'yishni rejalashtiradi. Rus maktablariga ko'plab mablag'lar ajratadi. Shunday qilib, ularning milliy maktablardan afzalliklarini ko'rsatishga harakat qiladilar.

2.Rus-tuzem maktablarining faolaiyati

XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmiga kelib, mustamlakachilar musulmon maktab va madrasalarni nazorat qilib turish bilangina cheklanmay, ularni bevosita rus maorifi mahkamalariga bo'ysundirib, shu tariqa milliy ta'lim tizimi ustidan nazorat o'rnatishga kirishadi. Madrasalar o'quv dasturlariga rus tilining kiritilishi, mudarrislar qatoriga rus o'qituvchilarini kiritish imkoniyatlarini tug'dirar edi. Shuning uchun mahalliy o'quv tizimiga rus tilini o'quv mashg'uloti sifatida o'tishni joriy qilish talabi qo'yilmoqda edi. Bu degan so'z bevosita madrasalarni ichidan turib nazoratga olish demakdir. Chunki o'quvchilar seminariyasini bitirib chiqqanlarning har biri Rossiya Imperiyasining manfaati uchun chaquv (donos) ishlari bilan shug'ullanishga qasamyod qilar edilar.

Istibdod yillarida musulmon maktablari ustidan nazorat qilishga doir ko'plab turli ma'nodagi buyruqlar chiqarilar edi. Ammo ularning aksariyati hayotga tadbiq etilmasdi. Masalan, 1884 yil xalq ta'limi inspektorlari uchun maxsus yo'riqnoma (ko'rsatma) tuzildi. Yo'riqnomaning uchinchi bo'limiga ko'ra, barcha mahalliy maktab va madrasalar rus inspektorlari tasarrufiga o'tkaziladi. Biroq bu davrda faqat vaqf mulklari ustidagina nazorat o'rnatishga erishiladi, xolos.

General-gubernator Rozenbax o'zining barcha mahalliy maktab va madrasalarni nazoratga olish haqidagi fikrini qattiq turib himoya qiladi. U 1887 yilda Maorif Ministrligiga bu xususda katta doklad va talabnoma bilan murojaat qiladi. Oradan roppa-rosa uch yil o'tgandan keyingina musulmon maktab va madrasalariga inspektor vazifasi ta'sis etiladi. Bu lavozimga o'qituvchilar seminariyasining sharq tillari bo'yicha mutaxassisi P.V.Nalivkin tayinlanadi. 1884 yilda ochilgan birinchi rus-tuzem maktabining boshlig'i va o'qituvchisi P.V.Nalivkin o'zbek, tojik va arab tillarini bilar edi. U islomshunoslik va etnografiya bo'yicha bir qator maqolalar, qo'llanma va kitoblar muallifi edi. Mahalliy matbuotda uning Qur'oni Karim va shariat asoslarini yoritib beruvchi maqolalari chop etilib

turardi. P.V.Nalivkin 1890-1893 o'quv yillari mobaynida Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlaridagi maktab va madrasalarning ahvolini o'rganib chiqadi, ularning soni, tuzilishi, moddiy ahvoli va o'quv jarayoni haqida statistik ma'lumotlar yig'adi. Keyinchalik uning keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan «Hisobotlari», 1916 yilda Turkiston general-gubernatori A.N.Kuropatkinning buyrug'iga asosan nashr etiladi. Ushbu ma'lumotlar ko'p yillar mobaynida mustamlakachi ma'murlarga, Turkistonning maorif sohasi bilan bevosita shug'ullanuvchilarga, eski usul maktab va madrasalarining ahvoli haqida xabar beruvchi yagona rasmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

P.V.Nalivkin madrasalar o'quv dasturiga rus tili va boshqa dunyoviy predmetlarni kiritish haqida bir necha bor takliflar kiritadi. Ammo bu urinishlardan naf chiqmaydi. P.V.Nalivkinning takliflari Samarqand viloyatining harbiy gubernatori graf Rostovsev va Sirdaryo viloyatlarining harbiy gubernatori general Korodkovlarning qattiq qarshiligiga uchraydi. Shusiz ham bu masalada musulmon diniy ulamolarning noroziligidan cho'chiyotgan general – gubernator Verevskiy bunday islohot loyihalarini ko'rib chiqishni va amalda qo'llashga bo'lgan barcha urinishlarini qat'iyon to'xtatib qo'yadi. P.V.Nalivkinning fikrlari o'quv yurtlari bosh inspektori F.M.Kerenskiy tomonidan ham qattiq tanqidga uchraydi. Nihoyat, 1896 yili musulmon o'quv yurtlarining inspektori vazifasi bekor qilinadi.

Mohiyati aynan bo'lgan ikki yondashuv

1898 yili Andijondagi Dukchi Eshon qo'zg'olonidan¹ so'ng Chor ma'muriyati erli aholini ruslashtirishga, islom dinidan chetlashtirishga urinadi hamda musulmonlarni yagona maslak yo'lida birlashishiga qarshi bir qator amaliy tadbirlar o'tkaza boshlaydi. Bu tadbirlar yangi gubernator Duxovski ko'rsatmasi va bevosita rahbarligida uyushtiriladi. U asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish – rus zobitlari va chinovniklarini islom dini, mahalliy xalqning urf-odati, tili bilan yaqindan tanishtirishga

¹ Дукчи Эшон. Пандлар. – Т.: Нур, 1993. Б. 75.

yaqindan xizmat qiladigan tadbirlar, kurslar tashkil etish, ommaviy ma'ruzalar, attestasiyalar o'tkazish bilan amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalish esa – mahalliy xalqni rus tili, Rossiya tarixi, geografiyasi va jahon fani erishayotgan yutuqlar bilan tanishtirish orqali olib borildi. Ana shu tarixiy vaziyatda chor ma'murlarining Turkiston maorif tizimida mansabdor bo'lgan rus ziyolilarining ichida musulmon maktab va madrasalari masalasida ikki xil fikrli oqimlar paydo bo'ldi. Bir guruh ruslar mahalliy o'qitish tizimini tamomila cheklash asosida, uni xristianlashtirish siyosatini himoya qildilar. Bu guruhga o'quv yurtlari bosh inspektori F.M.Kerenskiy va Sirdaryo viloyati o'quv mahkamalarining boshlig'i S.M.Germaniskiy boshchilik qildilar. Ikkinchi guruhga V.P.Nalivkin va N.P.Ostroumovlar yo'l boshchilik qilib, ular general – gubernatorga maktab va madrasalarda rus tilini o'qitishni yo'lga qo'yish, ularni nazoratga olishning eng qulay yo'li deb, musulmonlarning rus ma'muriyati tomonidan nazoratda bo'lgan diniy boshqarmasini tuzish kerak, degan takliflar bilan chiqdilar. Lekin mohiyatan bu ikkala qarashlarda ham mahalliy xalqning ta'lim olish sistemasini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarishga, ilmiy salohiyatini oshirishga, aholini savodxonligini yuksaltirishga, o'qimishli, ziyoli qilib tarbiyalashga qaratilmaganligi sezilib turadi. Rus ziyolilarining bu ikki «konservativ va progressiv» fikrlovchi oqimi tarafdorlari o'zlarining Turkiston maorifi sohasidagi butun faoliyatlarini aynan Rossiya imperiyasi manfaatlariga nuqtai nazaridan kelib chiqib yagona maqsadga yo'naltirgan edilar.

Shu ishni nazoratga olish uchun 1898 yili general-gubernatorning yordamchisi Ivanov boshchiligida Komissiya tuziladi. Bu Komissiyani tuzishdan maqsad, Turkistondagi maktab va madrasalarning tuzilishini, hamda o'lka musulmonlarining diniy boshqarmasini tuzish kabi muhim masalalarni hal qilish edi. Mazkur Komissiya ishining yakuniy xulosalarining taqdiri tubandagi natijalarni bergan. Rus ma'muriyati nazoratidagi musulmonlarning diniy boshqarmasini tuzish haqidagi loyiha general-gubernator tomonidan rad etiladi. Maktab va madrasalar ustidan

o'rnatiladigan nazorat o'quv ishlariga aralashmaslik sharti bilan viloyat va uezd ma'muriyatiga topshiriladi. Xuddi shu masalada 1905 yili Turkiston general-gubernatori tomonidan tuzilgan Komissiyaning loyihalari ham amalga oshmay qolib ketadi.

1908 yilda musulmon maktab va madrasalarini qay tarzda nazorat qilish masalasida Turkiston general-gubernatorining yordamchisi general Kondratovich boshchiligida yana bir Komissiya tuzilib, o'z ishini boshlaydi. 1909 yilda xuddi shu masalalar bo'yicha Turkiston o'quv yurtlari Bosh boshqarmasi qoshida ham alohida Komissiya o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Lekin bu komissiyalar taqdim etgan reja-loyihalarning birontasi ham amaliy natija bermaydi.

Mazkur masala, ya'ni Chor mustamlakachi ma'murlarining Turkiston o'lkasi maorif tizimi sohasida olib borgan siyosati yuzasidan qisqacha xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma'muriyat vakillari o'z siyosatlaridan juda ayyorlik bilan, uzoqni ko'zlab ish tutganlar. O'lkaning birinchi general-gubernatoridan tortib, to oxirgisigacha mahalliy xalq maorif sistemasiga bo'lgan siyosatni izchillashtirgan, shariat ulamolari va oddiy xalqni mustamlakachi rejimga nisbatan noroziligini uyg'otib qo'ymaslikka intilganlar. Ular imkoniyat qadar maktab va madrasalar hayotiga yangilik kiritmaslikka va shu bilan birga aholi qatlamlari orasida zamonaviy ehtiyojlardagi dunyoviy bilimlarni yoymaslikka harakat qilganlar. Turkiston general – gubernatori A.N.Kuropatkinning «Biz 50 yil tubjoy aholini taraqqiyotdan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik»¹, deb e'tirof etishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ammo ayni paytda erli millat vakillarining har tomonlama ehtiyojlarini qondira oladigan, chuqur bilim bera oladigan ilm maskanlariga rag'bat, tashnaligi orta bormoqda edi.

Amalga oshmagan niyat yoki rus-tuzem maktablari

Turkiston aholisi 20-asrni zamonaviy bilimlarga, yangicha dunyoqarash va ijtimoiy g'oyalarga chanqoqlik muhiti ichida kutib olmoqda edi. Shuning

¹ Мажид Қасаний. Туркистон босълини. – Т.: Нур, 1992. Б. 39.

uchun mustamlaka rejimi rus va rus-tuzem maktablaridan erli aholining ushbu intilishlari borasida foydalanishni istar hamda dastlabki davrlarda bu maktablar "sartlarni ovuntiradigan" va ayni paytda chorlik saltanatining manfaatlariga xizmat qiladigan ana shunday maskan bo'la oladi, degan fikrda ommaviy ravishda shu tipdagi o'quv maskanlarini tashkil etish bilan mashg'ul bo'ldilar. Rus-tuzem maktablari aksariyat hollarda ana shu puxta o'ylangan katta siyosatning maqsadi g'oyasi, mafkurasi uchun xizmat qilar edi.

Milliy maktablardan rus maktablariga intilishning boshlanishi ruslashtirish siyosatining ko'rinmas iplaridan bo'lib, mazkur maktablar bu jarayonni tezlashtirishda katta rol o'ynaydi.

Masalaning yana bir e'tiborli tomoniga nazar tashlash zarur. Ommaning bilimsizlikda tutib turish uning ustidan hukmronlik qilishni osonlashtiruvchi siyosiy omildir. Masalaning bu jihati Chor ma'murlarining diqqat markazida bo'lgan. N.I.Ilminskiyning o'sha davrdagi rus maktablari bosh inspektori N.P. Ostroumovga yo'llagan xatida aynan shu siyosatni xarakterlovchi fikrlarning uchrashi mulohazamizga ushbu mulohazani qo'llab-quvvatlaydi. Rus inspektori vazifasiga, deydi u o'sha xatda, musulmon maktablarining nazorati kiritilishi kerakmi yoki yo'qmi, degan masalaga men "yo'q", degan echimni lozim topardim Chunki bu maktablarni tasarrufiga olganidan so'ng rus inspektori ularning gullab-yashnashi uchun qayg'urishi kerak. Ushbu maktablar diniy xarakterda bo'lgani uchun, tabiiy, biz ularning diniy mafatlariga xizmat qilgan bo'lib qolamiz. Madrasalarda evropacha bilimlarni kiritish bilan aholini ruslashtirishga erishib bo'lmaydi. Aksincha, madrasalarni davlat ko'magidan chetda tutib, o'z holiga tashlab qo'yish kerak . Uning o'rniga rus-tuzem maktablarini, aqlni ishlatib, erli xalq manfaatdor bo'ladigan qilib tashkil qilish kerakki, xuddi shu rus asosidagi maktab Rossiya bilan savdo qiladigan aholining talablarini to'la va tez

qondirishi bilan madrasalarga qarshi turishi mumkin. Ya'ni bu madrasalarning mavqeni tushishiga xizmat qiladigan vositadir»¹.

Mazkur xatdan ham Chor amaldorlarining mintaqa maorif tizimiga doir olib borgan siyosatlarining manfur tusda ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Mustamlakachi ma'murlar Turkiston xalqlarini yagona maqsad yo'lida, har qanday mustabid yovga qarshi kurashda jipslashtiruvchi tamoyillar - ularning buyuk o'tmishidan quvvat oluvchi mafkura hamda islom dinining qudrati g'oyasi mavjudligini har qadamda his etib turadilar. Qachonki bu muqaddas g'oyalarga nisbatan ozgina tayziq o'tkazilsa ham, u alangalanib ketishini sezib turgan ma'murlar aholining diniy hissiyotiga o'ziga xos munosabatda bo'lib, bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka oluvchi loqayd pozisiyada turdilar.

Shu sababli diniy idoralar, musulmon maktab va madrasalari ustidan nazorat qilish uchun musulmonlarning diniy boshqarmasini tuzish to'g'risidagi rus misioner ziyolilarining takliflarini hamma vaqt general-gubernatorlar rad etib keldilar. Chunki bitta tashkilot va g'oyaga birlashgan musulmonlar imperiya daxlsizligi uchun jiddiy xavf tug'diradigan katta kuchga aylanishi ehtimoli bor edi.

Mustamlakachi ma'murlarning Turkiston maorif tizimi bilan bog'liq siyosatining bosh yo'nalishi va maqsadi, mintaqa aholisi ongida Chor Rossiyasi istilochilik harakatlarining ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini barqarorlashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni imperiya manfaatlari uchun so'zsiz xizmat qilish ruhida tarbiyalash, vatan, millat taqdirini ifodalovchi qarashlarning har qanday ko'rinishlariga izn bermaslik, ma'naviyatni, ruhiyatni tobelikka moslashtirish kabi aqidalariga asoslangan edi. Shuning uchun ham Chor amaldorlari Turkiston mintaqasida harbiy masalalarni hal etgach, e'tiborini o'lka maorif tizimi sohasiga jalb etdilar. Umuman, Chorizmning Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-ma'naviy

¹ Знаменский Н.Б. Участие Н.И.Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. 1900. письмо – 2. С. 101.

hayotida olib borgan siyosatini mustamlakachilik, bosqinchilik, tarafkashlik, manfaatparastlik nuqtai nazaridangina izohlash lozim. Chor ma'murlari o'lka hayotining qaysi sohasiga nazar tashlanmasin, avvalo, imperiya, ulug'davlatchilik g'oyalari va manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatadilar. Bundan o'zgacha bo'lishi mumkin ham emas. Sababki, har qanday davlat muayyan o'lkani istilo qilar ekan, uning shu o'lkadan ko'zlagan iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy manfaatlari bo'ladi. Aks holda o'zga mamlakatlar zabt etilmas edi. Xususan, Chor Rossiyaning ham Turkiston, chunonchi uning maorif tizimi sohasida olib borgan siyosatining yo'nalishi ham shu umumiy tamoyilga asoslangandir.

Navbatdagi masala, Turkistonda rus-tuzem maktablarining joriy qilinishi, ulardagi o'qitish usullarining mohiyati, bu maktablardan ko'zlangan maqsad kabi muammolarga aniqlik kiritishdir.

Ma'lumki, general-gubernator K.P. fon Kaufman davridayoq tubjoy aholini ruslashtirishning eng maqbul uslubi sifatida mahalliy millat bolalarining rus maktablarida o'qitish ishlari tanlangan edi. Rus maktablarida ruscha tartib-qoidaga rioya qilinishi bilan bir qatorda, bu tilda savod chiqargan bolalar rus hukumati siyosatiga xayrixoh qilib tarbiyalanardi. Rus ma'murlari bu maktablarning afzalliklari xususida qanchalik tashviqot yuritmasinlar, ular erli millat hayotiga begona bo'lib qolaveradi. Xalqning diniy hislari ustunlik qilib, farzandlarini g'ayridinlar ixtiyoriga topshirishdan hayiqdilar, rus maktablarida tahsil olgan bola dinsiz bo'lib qolishi mumkin, degan andishaga bordilar.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan davrning dastlabki yillarida, aholiga ruscha ma'lumotning keragi ham bo'lmagan. Chor ma'murlarining bevosita maorif bilan shug'ullanuvchi vakillari, joylarda rus maktablariga mahalliy xalq bolalarini jalb etish uchun ko'plab sa'y-harakatlar qildilar. Pansionlar ochdilar, ko'chmanchi qozoq, qirg'iz bolalarini yashash uchun tekin uylar bilan ta'minladilar, ba'zi hollarda esa oziq-ovqat va kiyim-kechaklar ham ulashildi.

Masalan, Ettisuv viloyatidagi shu xildagi maktab haqida N.P.Ostroumov «Turkestanskije Vesti» gazetasida «...Bu pansionnning vazifasi rus tilini umuman bilmaydigan qirg'iz bolalarini rus bolalari bilan birga o'qitishga tayyorlash bo'lib, pansion bolalarni o'qishdan boshqa vaqtlarda ham nazorat qilib turish imkonini beradi. Bolalarning ustki formasi, ich kiyimidan tortib, botinkalarigacha fon Kaufman ko'rsatmasiga binoan ruscha bichimdadir. Har qanday sharoitda ham bolalarning ovqati rus taomlari bo'lib, ularni ruscha usulda rus oshpazi tayyorlaydi. Albatta, bu pansionnning erli xalqni ruslar bilan yaqinlashtirishdagi xizmati kattadir»¹-deb yozadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, rus ma'murlari tub joy aholini milliy o'zligidan yiroqlashtirish jarayonini maorif tizimi orqali izchil amalga oshirishga tirishganlar. Hatto mahalliy millat bolalarini rus maktablariga pul berish evaziga o'qishga yollash usullaridan ham foydalanilgan. Manbalarda keltirilishicha, 1898 yilda Toshkentdagi rus maktablariga birinchi musulmon bolasini (tatar millatiga mansub) har oyiga 10 so'm evaziga shaxsan general-gubernator Fon Kaufmanning o'zi olib kelgan.² 1879 yili Chimkentdagi rus maktabida o'qigan ikkita o'zbek qizchalarining ota-onasiga to'rt so'mdan pul to'langan. E'tiborli tomoni shundaki, bu xildagi chora-tadbirlarning birontasi mahalliy millat bolalarini rus maktablariga ommaviy jalb eta olmagan. Oradan ancha muddat o'tgach, aniqrog'i, Turkiston istilosiga qariyb chorak asr to'lgandan keyin general-gubernator Rozenbax erli xalq orasida rus maktablarining mavqei yo'qligini sabab qilib, 1885 yil 14 fevralda Xalq Ta'limi Ministrligiga yozgan dokladida qo'yidagi fikrlarni bildiradi: «Bu maktablarda o'zbek, tojik, tatar bolalarining kamligi, aytish mumkinki sanoqli ravishda kamligiga sabab, rus maktabida musulmonlar hayotida zarur

¹ Остроумов Н.П. Несколько слов об образовании туземцев Сыр-Дарьинской области в русских школах 1878 году. Туркестанские Вести. ТВГ., 1879. 30.

² Туркестанский литературный сборник в пользу прокаженных. Н.П.Остроумов. Рассказ о покойном Н.К.Фон Кауфмане, 1900. С. 17.

bo'lgan yozuv (arab imlosidagi) o'rgatilmaganligi va diniy ta'lim berilmasligidir».¹

Rozenbax Ta'lim Ministrligidan mintaqada ruslashtirish siyosatining yangi yo'nalishini belgilaydigan bir qator ishlarning rejalarini amalga oshirish uchun ijozat so'raydi. Ana shu rasmiy rejalaridan biri mahalliy aholi uchun ruscha tipdagi boshlang'ich maktablar ochish edi. Bu xildagi maktabda ikkita sinf bo'lib, bunda rus tilida boshlang'ich ta'lim berilsa, ikkinchisida esa arab grammatikasi bilan islom dini asoslari o'qitilishi kerak edi. Dastlabki shu asosdagi maktab Chimkentda tashkil etildi. U bu tipdagi maktablar uchun namuna sifatida namoyish etildi. Ushbu maktab haqida Sattorxon Abdulg'afforov quyidagicha xotirlaydi: «Xiva yurishidan keyin general-gubernator Chimkentda rus maktabi ochishni buyurdi. Rus tili o'qituvchisi qilib Orenburg qirg'izlaridan bo'lmish Hasanov tayinlandi. Bu, o'lkadagi birinchi rus-tuzem maktabi edi va unda 40 bola o'qigan». Bu maktab 1874 yilda tashkil etilgan. Oradan o'n yil o'tgach, 1884 yil ushbu maktab tajribasi asosida Turkiston o'lkasiga general-gubernatorligining harbiy-siyosiy markazi Toshkentda rus-tuzem maktabi ochiladi. Uningg ochilishi tarixi ham qiziqarlidir. Yangi tipdagi maktab loyihasi ustida Chor ma'muriyatining amaldorlari, chinovniklari va rus ziyolilari o'rtasida turli tortishuvlar, baxslar bo'layotgan, har xil fikrlar bildirilayotgan bir paytda aniqrog'i, 1884 yilning sentyabr oyida Toshkent shahrining boshlig'i Putinsev shaharning eski shahar qismida rus-musulmon maktabini ochish bo'yicha taklif bilan Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori Grodekovga murojaat qiladi. O'z navbatida xuddi shu mazmunda Grodekov general-gubernator Rozenbaxga bildirish xati (raport) topshirdi. Grodekov o'z raportida jumladan shunday fikrlarni bildirib o'tadi. «Shaharning musulmonlar yashaydigan qismida mahalliy ayollar va bolalar uchun ambulatoriya ochilgandir. Ambulatoriya aynan erli aholi yashaydigan joyda

¹ Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.П.Фон Кауфман устроитель Туркестанского края. 1899. С. 98.

ochilgani uchun u muvaffaqiyatli ishlayapti. Agar biz tub joy aholi uchun rus maktabini eski shaharda ochsak, bu maktabning ham muvaffaqiyatli tayindir. Shu tariqa srtlarni ruslashtirish masalasi hal bo'ladi qo'yadi»¹. Grodekovning raporti o'quv yurtlari boshqarmasi qoshidagi Komitet tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bu Komitet hatto gubernator Rozenbaxdan shahar qozisi va boshqa obro'-e'tiborli kishilardan mahalliy xalq orasida ruscha ta'lim ishlarini rivojlantirishga yordam berish xususida qo'l qo'ydirib tilxat olishni so'raydi. Xullas, ushbu maktab, 1884 yilning 19 dekabrda Toshkentning eski shahar qismida ochiladi. Keyinchalik bu maktablar rus-tuzem maktablari nomini oladi.

Toshkentdagi birinchi sonli rus-tuzem maktabi Saidazimboy Muhammadbekovning o'g'li Saidg'aniboy Saidazimboevning uyiga joylashtiriladi. Maktab boshlig'i va birinchi rus o'qituvchisi qilib V.N.Nalivkin tayinlanadi. Birinchi musulmon o'qituvchisi vazifasiga esa shaharning nufuzli kishilaridan biri bo'lgan, mulla Salimxo'ja Kichkinaxo'jaev qabul qilinadi. E'tiborga molik tomoni shundaki, ularga to'lanadigan maosh bir-biridan keskin farq qiladi. V.N.Nalivkinning yillik maoshi 1000 so'm bo'lgani holda, Kichkinaxo'jaevga beriladigan bir yillik maosh atigi 400 so'mni tashkil etadi. Bunday yondashuv milliy kamsitishdan, xo'rlanishdan boshqa narsa emas edi. Shunday bo'lsada mahalliy aholining, ziyolilarning ijtimoiy taraqqiyotga bo'lgan umidi bunday kamsitishlarga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otmagan.

Rus-tuzem maktabida o'qish kuni ikkiga bo'linib, birinchi ikki soatda rus tili, grammatika, o'qish va arifmetikadan rus o'qituvchisi darslarni o'tgan. Keyingi ikki soat esa, musulmon o'qituvchisi tomonidan bolalar arab grammatikasi va islom asoslaridan saboq tinglaganlar. Bu maktablarning asosiy maqsadi, mahalliy millat bolalariga mahalliy maktab va madrasalarga nisbatan dunyoviy bilimlarni kengroq berish, jahon ilm-fani erishayotgan so'nggi yutuqlar bilan tanishtirish emas, balki bolalarni imkon qadar ruscha

¹ ЫЗР МДА, ф-47, 654-иш., Опись Управления учебными заведениями Туркестанского края.

gaplasha olishga o'rgatish va shu asosda ruslashtirish jarayonini chuqurlashtirishdan iborat bo'lgan siyosat edi. Bu borada general-gubernatorning "...Bu maktablarning o'quv programmasi rus tili grammatikasi va hisob bo'yicha eng boshlang'ich bilimlar bilan cheklanishi lozim. Asosiy e'tiborni mahalliy millat bolalarining ruscha so'zlashuvni yaxshiroq egallashlariga qaratish kerak", deb bergan ko'rsatmasi fikrimizni isbotlay oladi.

1884 yili general-gubernatorlikning buyrug'iga ko'ra, rus-tuzem maktablarining boshliqlari uchun maxsus yo'riqnomalar (ko'rsatmalar) ishlab chiqiladi. Mazkur ko'rsatmada maktab boshliqlariga bu maktablarning vazifasi mahalliy xalq bilan yumshoqroq muomalada bo'lish, ularni jazolamaslik va juda bo'lmaganda yolg'ondan ularning diniga hurmat bilan qaraydigandek ko'rsatish, mahalliy til va odatlarni o'rganish, erli aslzoda bolalar bilan yaqindan tanisha borish tavsiya etiladi¹.

Arxiv materiallariga ko'ra, 1886 yilgacha Turkistonda 22 ta rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsatgan. Shundan sakkiztasi Sirdaryo viloyatida, bittasi Toshkentda, ettitasi qishloq va ovullarda, beshtasi Farg'ona viloyatining eski Marg'ilon, Andijon, O'sh, Qo'qon, Namangan kabi dahalarida, bittasi Samarqand viloyatining Jizzax shahrida joylashtirilgan¹.

Endi bu boradagi aniq raqam va fikrlar bilan e'tiborga molik bo'lgan senator K.K. Palenning kuzatishlarini ko'rib o'tsak masala ancha xiraliklardan ozod bo'ladi. 1895 yilning birinchi yanvarga kelib, -deydi u o'z qaydnomalarida, Turkiston o'lkasida 23 ta rus-tuzem maktabi ochilgan bo'lib ularda 447 ta mahalliy millat bolalari o'qishgan. Bu degani har bir maktabga 19 tadan o'quvchi to'g'ri keladi. Ulardan 1895 yili 16 ta o'quvchi bu maktablarni bitirgan. Demak, o'rtacha har bir maktabga bittadan ham kamroq o'quvchi to'g'ri keladi. Avvalgi yillar bilan solishtirilganda keyingi davrda bu ishning deyarli umuman oldinga siljimaganligini kuzatish mumkin. 1888

¹ Пален К.К. ... Учебное дело. 1910. С. 95.

¹ ЎЗР МДА, 48-ф., 121-иш., Опись инспектора народных училищ 1886 года.

yilda 22 ta maktab mavjud edi. Ularning soni to 1894 yilgacha o'zgarmagan. Rus-tuzem maktablari ochilgandan beri o'tgan 9 yil davomida ularning hammasi bo'lib, 113 nafar o'quvchi bitirib chiqqan. Bu esa bir yilda o'rtacha 12 nafar bitiruvchi bo'lganligini ko'rsatadi. Dastlabki yillar bu maktablarning har biri uchun hukumat yiliga 995 so'm miqdorda pul ajratgan. Shundan 600 so'mi rus o'qituvchisining, 120 so'mi esa musulmon o'qituvchisining maoshiga, qolgan 275 so'm xo'jalik ehtiyojlari va qo'llanmalar uchun sarflangan. Bu maktablar o'qitish ishlariga mos bo'lmagan binolarga joylashtirilgan. Ayniqsa, internatli maktablar ishg'ol qilgan joylar o'qitish sharoitlariga umuman mos kelmas edi. Internatli maktablar ochish ancha qimmat xarajatlarni talab etib, bu xarajatlar mahalliy xalq hisobidan qoplangan. Rus-tuzem maktablarining Turkiston o'lkasi bo'yicha 1908 yilgi statistik ma'lumotlarini K.K. Palen qaydlari asosida jadvalda ko'rsatish mumkin¹.

Inspeksiyalar	Maktablar soni	O'quvchilar soni	Maktabda o'rtacha o'quvchilar soni
Sirdaryo viloyati	34	1354	40
Fag'ona viloyati	20	660	33
Samarqand viloyati	15	273	13
Ettisuv	19	462	24
Jami	88	2749	110

¹ Пален К.К. ... Учебное дело. С. 96-97.

Biror volost yoki uezdda rus-tuzem maktabi ochilishi munosabati bilan shu volost, uezd boshliqlari aholining o'ziga to'q boylari, mansabdorlari va boshqa kishilardan maktab fondi uchun mablag' yig'ib berishlarini so'raganlar. Bu maktablarda bolalarini o'qitishni istamagan boylar kambag'allarning bolalari uchun pul berib, o'z farzandlari o'rniga o'qittirganlar. Yoxud yollash uchun volost boshlig'iga pul berganlar. Volost boshliqlari esa hamma vaqt ham ota-onalariga kelishilgan miqdordagi pulni in'om etmaganlar. Bu pullarning ma'lum qismini chegirib qolganlar. Ayrim hollarda esa har bir xonadonda maktab puli solig'i yig'ib olinib, ularning miqdori maktabga o'quvchi yollash uchun sarflanadigan pullardan ortiqcha bo'lgan. Shu tariqa chor ma'murlari mahalliy xalqni maorif yo'li bilan ham talaganlar. Bu xaqdagi N.V. Nalivkinning bergan ma'lumot e'tiborli. "Koriz qishlog'idagi maktabda, -dedi u, Abulqosim-38 so'mga, Ikrom -25 so'mga, Hasan qori - 50 so'mga yollanganlar. Kelishilgan puldan Hasan umuman olmagan uchun maktabdan ketmoqchi"¹ Yoxud ushbu voqeadan keyin biroz o'tgach, Toshkent uezdi volostlaridagi rus-tuzem maktablarini tekshirishdan o'tkazgan Mironov qo'yidagi ma'lumotlarni keltiradi. "Abliq volostidagi Tellyalu (Tillali bo'lsa kerak - *muallif*) rus-tuzem maktablarida...

1. Toshpo'lat Mirzaqulov -savdogarning o'g'li, maktabga o'z xohishi bilan keladi.

2. Umrzoq Tog'aev - Sang'ir qishlog'i ellikboshisining o'g'li, yiliga 64 so'mga yollangan

3. Yo'ldosh Boychin - Tepaulik dehqonning o'g'li, yiliga 15 so'm yollangan

4. Yo'ldosh Sarimsoqov - dehqonning o'g'li, Toshtepa qishlog'idan, yiliga 30 so'mga yollangan

5. Yusuf Abdiqulov - Sang'ir qishlog'idan, dehqonning o'g'li, yiliga 30 so'mga yollangan

¹ ЎЗР МДА 47-ф., 339- иш., Опись управления учебными заведениями Туркестанского края в 1886 году.

6. Usmon Joyoli o'g'li - Mo'min qishloqlik dehqonning o'g'li, 60 so'mga o'qiydi

7. Suir Ibraev - Kashevat qishlog'idan, etim, yiliga 30 so'mga yollangan. Avvalgi yil kelishilgan puldan 1 so'mini olgan, qolganini ellikboshi bermagan. Bu yilda ham pul olgani yo'q. Shuning uchun u maktabga borishni xohlamaydi. Lekin uni borishga majbur qilishadi². Mironov ro'yxatni aniq dalillar bilan shu taqlidda uzun qilib keltiradi. U o'zining hisobotida rus-tuzem maktablarida yuz berayotgan suiste'molchiliklar, qonunbuzarliklar va poraxo'rliklar haqida yozish bilan cheklanmasdan, bu maktablar o'qituvchilarining bilimsizligi, dars o'tishga uquvsizliklari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu "serdaromad" ishga, ayniqsa, Toshkent uezdining To'ytepa, Koriz, Abliq volostlari boshliqlari qiziqib ketadilar. Hatto, 1886 yili uezd boshlig'i gubernatorlikka "deyarli hamma volostlarda erli xalq volost boshliqlaridan maktablarni yanada ko'proq ochishni qattiq turib talab qilayotganliklaridan hech tinchlik yo'qligi" haqida qayta- qayta murojaat qilgan. Peterburgga esa erli aholi rus-tuzem maktablariga yopirilib kirayapti, degan mazmunda xat yuborilgan¹.

XX asr tobora yaqinlashib kelmoqda edi. Mintaqada Rossiya bilan savdo-sotiq avj olgan, milliy burjuaziya saflari kundan-kunga kengaymoqda, madaniyatlar chatishuvi yuz bermoqda edi. Shu tufayli hamma hududlarda ham rus-tuzem maktablarining o'quvchilari pulga yollangan edilar. Katta shaharlarda, viloyat markazlarida savdogar boylar, qishloq oqsoqollari, qozilar bolalarini, rus hayot tarzi tobora o'lkaning sarhadlarini keng qamrab olayotganligini hisobga olib, ruscha savod chiqarishga jalb eta bordilar. Chunki bu maktabni bitirganlar ma'muriyat idoralarida, banklarda, polisiya nazoratlarida ishlash bilan bir qatorda, rus tujjorlari bilan ham bevosita savdo aloqalarini yo'lga qo'yishlari, Rossiya aholisi bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish imkoniyatlariga ham ega bo'lardilar. Umuman, rus hayoti tarzi bilan bog'lanish zamon, davr talabi bo'lib qolmoqda edi. Ayrim ruscha muloqot qilishni o'rganib olgan toliblar rus tilida telegramma, ariza

² ЎЗР МДА, 47 – ф., 704 -иш., Опись Управления учебными заведениями Туркестанского края. Об осмотре учебных заведений в 1888-1889 годах.

¹ Наливкин В.П. Туземцы, раньше и теперь. – Т., 1913. С. 21.

va boshqa xatlarni pul evaziga yozardilar.

Bu davr maorifiga oid ayrim manbalarda yana shunday diqqatga sazovor fikrlar ko'zga tashlanadi. Rus-tuzem maktablaridagi o'quvchilar soni 20 tadan oshmas edi. Lekin Pskentdagi maktabda 44 ta o'quvchi hisobda turgan. Buning sababini xalq maktablari inspektori Mironov "...sobiq Qashqar beklaridan Qulibek Yaqubbekov juda boy va obro'li kishilardandir. U rus maktablarining rivojlanishiga juda xayrixohdir. Uning sa'y-harakati tufayli maktab o'quvchilarining 93 foizini mahalliy aslzodalarning bolalari tashkil etadi"¹, deb izohlaydi.

Mazkur masala yuzasidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, rus-tuzem maktablaridan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy aholini ruslashtirish, rus hayot tarzini ta'lim-tarbiya vositasida singdirish orqali mustamlakachilikni ma'naviy jihatdan mustahkamligini ta'minlash edi. Shu bois chor ma'murlari rus-tuzem maktablarini tadbiq etish choralarini tezlashtirdilar. Mahalliy maktab va madrasalarning mavqeiga putur etkazib, ularni xalq e'tiboridan tushira boshladilar.

Ammo tarixiy manbalarda uchraydigan bu xususdagi dalillar Chor Rossiyasining siyosati ko'zlangan natijalarni bermaganligini tasdiqlaydi. Aholining asosiy qismi ongiga rus-tuzem maktablari g'ayritabiiy ilm maskanlari sifatida singishmagan.

Rus-tuzem maktablarining ijobiy tomonlarini ham qayd etish o'rinlidir. Bu maktablarda muayyan darajada zamonaviy ilmlardan ham saboq berilgan. O'sib kelayotgan kapitalistik munosabatlar sharoitida hisob-kitobni bilish, rus tilida gaplashish va yozishni o'zlashtirish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, zamon talabi edi.

Nima bo'lganda ham tadqiq etilayotgan davrda Turkiston o'lkasi maorif tizimi murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirdi. Tobora taraqqiy etayotgan kapitalistik munosabatlar sharoitida an'anaviy ta'lim-tarbiya usullariga asoslangan mahalliy maktab va madrasalar o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Yangi tadbiq etilayotgan rus-tuzem maktablari esa, bir tomondan, milliy zaminga asosga ega emasligi tufayli aholining qarashlariga zid bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning

¹ ЎзР МДА, 47-ф., 744-иш., Опись управления учебными заведениями Туркестанского края за 1887 год.

mutasaddilari xalqqa zamon ehtiyojlarini inobatga olib, samarali bilim berishga moyil emas edilar. Bu maktablarning ko'pchiligida talabga javob beradigan ta'limiy salohiyat ham yo'q edi.

Mana shunday tarixiy, ma'rifiy murakkab vaziyatda Turkiston o'lkasi o'zaro ma'rifat quyoshining ilk nurlari sifatida, jadid-yangi usul maktablari maydonga kela boshladi va o'lkaning ma'naviy hayotida ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar, yuksalishlar jarayonini vujudga keltirish uchun sabot, matonat bilan o'zlarining serqirra faoliyatlarini boshlab yubordilar.

Xulosa

Shunday qilib, azim Turkiston diyorining ma'rifiy olami, XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Chorizm imperiyaparastlik siyosatining barcha nayranglarini boshidan kechirdi. O'lka madaniy dunyosi tarixining sahifalari kutilmagan yangi bir davrni, yangi bir munosabati va jarayonni guvohi bo'ldi. Bu Chor Rossiya mustamlakachilari o'lka bo'ylab olib borgan katta siyosatning bir bo'lagi va parchasi edi. Chor ma'murlari mintaqa madaniyati va maorifiga imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan e'tiborini qaratar ekanlar, dastavval bu jabhaning tarixiy an'alarini, o'ziga xos tamoyil va yo'nalishlarini, mahalliy aholi orasida tutgan mavqeini, o'qish va o'qitish tizimi mohiyatini va boshqa shunga o'xshagan jihatlari bilan chuqur tanishib chiqdilar. Chunki Chorizm o'zining Turkistonga qaratilgan siyosatini, xalqaro maydonda xalqchil, insonparvar va odil qilib ko'rsatish uchun go'yo o'lkaning madaniy ma'rifiy sohalarida islohotchilik tadbirlarini joriy qilayotgandek ko'rsatishi kerak edi. Amalda esa mustamlakachilik ildizlarini tobora mustahkamlash, mahalliy aholining ongida, ruhiyatida ulug' davlatchilik g'oyalarini shakllantirish va uni imperiya ideallari yo'lida so'zsiz va shaksiz xizmat qildirish kabi siyosiy-mafkuraviy maqsadlar ko'zlangan edi. Ma'muriyat mintaqa ijtimoiy ongi va ma'naviyatiga nazar tashlar ekan, unda har qanday mustabid kuch, yovuz dushmanga qarshi tengsiz kurashga otlantira oladigan muqaddas vatanparvarlik tuyg'ulari, milliy vijdon hissi mavjud ekanligini his etib, anglab turdilar. Shu bois mamlakat ijtimoiy hayotining qaysi qirrasiga munosabat bildirilmasin, mana shu tuyg'u, g'oyaning ozor chekishiga yo'l qo'yilmasdan, o'ta ehtiyotkorlik va hushyorlik bilan, zimdan siyosat yuritildi.

Ayniqsa, bu siyosiy jarayon o'lka maorif tizimi bilan bog'liq faoliyatda o'zgacha ahamiyat kasb etdi. Chunki Turkiston maorif tizimida islom va uning an'analari, urf-odatlar, shariat qonun-qoidalar qadimdan ta'lim-tarbiyaning etakchi vositasi, yo'naltiruvchi asosi bo'lib xizmat qilib kelgan.

Shu narsani alohida ta'kidlash joizki, islom dini ifodalagan qarash va aqidalar hech vaqt taraqqiyotga to'sqinlik qilmagan. U hamma vaqt tafakkuriy yuksalishga,

tinimsiz o'sishni, shaxs va jamiyat kamolotini o'z g'oyalarida mujassamlashtirib kelgan. Istibdod yillari o'lka maktab va madrasalaridagi hukm surgan fikriy tarqoqlik, turg'unlik islom dinini xurofotli tushunchalar asosida anglash, uni biryoqlama his qilish, dogmatik idrok etish oqibatida tug'ilgan edi. Shu jihatdan ham jadidlarning diniy islohotchilik harakatlarining tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Agar mahalliy aholi islom dinining maorif sohasidagi o'rnini bir tomonlama tushungan bo'lsa, chor chinovniklari esa umuman uni noto'g'ri anglaganlar. Natijada mahalliy va ma'muriyat o'rtasida maorif masalalarida nomuvofiqlik yuz bergan. Shu bilan birga chor amaldorlari mahalliy aholini savodsizlikda tutib turishdan manfaatdor edi. Bu kabi ijtimoiy, tarixiy omillar Turkiston xalqlari maorif tizimi taqdiri va taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q T: "Sharq" 1998
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. T: "O'zbekiston" 1996
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi T:, 5 T: "O'zbekiston" 1997
4. Norqulov N.Jo'raev I.O'zbekiston tarixi.T.: «SHarq»2000y.
5. Ibrat I.Farg'ona tarixi.T.: «Kamalak»1991yil.
6. Ibroximov A..Bizkim o'zbeklar.T.: «SHarq»1999y.
7. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajavuzi va xukmronligiga qarshi kurash. T.: «SHarq»1998y.
8. Ziyoev H.O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlari tarixi. T.: «SHarq»2001y.
9. Ziyoev H. CHorizm va paxta yakkaxokimligi. SHarq yulduzi1991y №5
- 10.O'zbekistonnig YAngi tarixi.1-kitob.Turkiston CHor mustamlakachiligi davrida. T.: «SHarq»2000y.
- 11.Bobobekov.Raximov J.Sodiqov H. O'zbekiston tarixi(XIXasr oxiri-XX asr boshlari) .T.: «O'qituvchi».1994y.
- 12.Raximov J. O'zbekiston tarixi(XIXasr ikkinchi yarmi-XX asr boshlari) .T.: «O'qituvchi».1999y.